

# YOSHLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY VA HUQUQIY TARBIYALASHGA TAYYORLASH TIZIMI

**Xolnazarova Dildora Mamatmuratovna**

Guliston Davlat Universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi  
**Tangirberdiyev Sherzod Gapparovich**

Guliston Davlat Universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qitish metodikasi yo'nalishi 2-kurs  
magstiranti

## SYSTEM OF PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR SPIRITUAL, LEGAL AND LEGAL EDUCATION

**Kholnazarova Dildora Mamatmuratovna**

Teacher of "National Ideology, Fundamentals of Spirituality and Legal Education" Gulistan State  
University

**Tangirberdiyev Sherzod Gapparovich**

2nd year master's degree in teaching methods of social sciences and humanities, Gulistan State  
University

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga tayyorlash tizimi  
ahamiyati hamda o'tgan yillar davomida qilinmog'i lozim bo'lgan ishlar va salbiy kamchiliklar  
shuningdek, O'zbekistonda yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlariga va ulkan imkoniyatlar ham  
alohida e'tibor qaratgan.

### **Kalit so'zlar.**

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar ittifoqi, Davlat dasturi, Harakatlar  
strategiyasiga, Ma'naviyat, Axloq.

В данной статье акцентируется внимание на важности системы подготовки молодежи к  
духовно-нравственному воспитанию в Узбекистане, а также на работе, которую предстоит  
проделать за последние годы и недостатках, а также на условиях и больших возможностях,  
созданных для молодежи. в Узбекистане.

**Ключевые слова.** Государственная молодежная политика в Узбекистане, Союз молодежи,  
Государственная программа, Стратегия действий, Духовность, Нравственность.

### **Abstract**

This article focuses on the importance of the system of preparation of young people for  
spiritual and moral education in Uzbekistan, as well as the work to be done over the past years and  
the shortcomings, as well as the conditions and great opportunities created for young people in  
Uzbekistan. focused

### **Key words.**

State Youth Policy in Uzbekistan, Youth Union, State Program, Action Strategy, Spirituality,  
Morality.

Yurtimizda barkamol avlodni shakllantirish va ualrni ulg'aytirish hamda ma'naviy-axloqiy va  
jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga  
aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshiri yo'lida juda ko'lab istiqbolli rejalar

amalga oshirilmoqda.Jumladan, maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy qilinganligi va o'quvchi va yoshlarning o'z uyi va mahallasida ta'lim olishi, eng muhimi ota va onasining oldida ekanligi, zamonaviy oliv ta'lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilganligi so'zimiz isbotidir.Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalg qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etilishi va hamda yoshlarni qo'llab quvatlash maqsadida «Yoshlar — kelajagimiz» Davlat dasturi qabul qilinganligi va "Yoshlar ishlari agentligi" tashkil etilishi bugungi kun yoshlari uchun juda katta yutuq boldi desam adashmayman.Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib borilayotgani barchamizga ayondir.Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan ushbu muammolarni ko'rib sanab tahlil qilasak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

**birinchidan**, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdidi uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayatganli

**ikkinchidan**, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emasligi va yetarli asosda ishmayotganligi

**uchinchidan**, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar ob'ektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport sektsiyalarining yetishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi va olis hududlarda yoshlarning bo'sh vaqtini unumli o'tkazish uchun shart va sharoitlar yo'qligi

**to'rtinchidan**, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeい va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarilayotganligi va ayrim ota va onalaring farzandlariga befarqligi

**beshinchidan**, yoshlarning oliv ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliv ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligi

**oltinchidan**, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda va yaqol ko'zga tashlanib qolmoqda.

Qayd etilgan muammolarni bartaraf etish, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga qabul qilindi hamda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni nazarda tutuvchi yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar yurtboshimiz tomonidan tasdiqlandi va ular jumlasiga:

1. Yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;
2. Yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;
3. Xodimlarning qadr-qimmati va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
4. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbazarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;

5. Yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
6. O'quvchi-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash nazarda tutilgandi.

Bugungi jamiyatning, unda yashaydigan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqligi barchamizga ayondir. Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir.Ma'lumki, Prezidentimiz ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surib, yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalari davlat siyosati darajasida e'tiborga olindi.Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati esa qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan shakllanib kelgan asl milliy va diniy qadriyatlarimizni ahamiyati nechog'lik muhim ekanini ko'rsatib bermoqda. Zero, ertangi farovon hayot jamiyatni mukammal axloq tamoyillari asosida barpo qilish, oilada barkamol farzand tarbiyasi, uning jismonan baquvvat, ruhan tetik, ma'nан etuk, aqlan va axloqan go'zal bo'lib etishi bilan belgilanadi.

Buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriyning "Odob durdonalari" (Al-Adab al-mufrad) kitobida keltirilgan muborak hadisi sharifda "Hech bir ota o'z farzandiga xulqu-odobdan buyukroq meros bera olmaydi", deyiladi.2020-yil 27-dekabr oyi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuv o'tkazdi, navqiron avlod vakillarining fikr-mulohazalari, loyihibarini eshitdi, ularning takliflari bo'yicha mutasaddi rahbarlarga topshiriq va korsatmalar berdi.Ochiq muloqot tarzida o'tgan mazkur uchrashuvda globallashuv sharoitidagi xavf-xatarlar va mafkuraviy xurujlar haqida so'z borganligi va Prezident ma'rifatparvar bobomiz Fitratning "Bu dunyo kurash maydonidir. Sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir", degan so'zlarini yodga oldi.Bir kun avval, 26 dekabr kuni Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o'quvchilari bilan suhbatda: "Abdulla Qodiriy ijod maktabida o'qiyotgan bu bolalar yangi O'zbekistonning kelajagi bunyodkorlaridir. Barcha umumta'lim maktablari ushbu o'quv dargohidan ma'naviyatni, ma'rifatni o'rganishi lozim. Chunki bu yerda tahsil olayotgan bolalar nafaqat ma'naviyatli, balki o'z vatanini yurakdan sevuvchi iste'dod egalari. Biz ijod maktablarida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilganmiz, - degan edi Prezidentimiz.

Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo'ladi. Nima uchun davlatimiz rahbari aynan yoshlar masalasiga alohida urg'u bermoqda? Davlatimiz rahbari nufuzli xalqaro tashkilotlar minbarlaridan turib, jahon hamjamiyatini yosh avlod turli buzg'unchi g'oyalar va radikal guruhlarga qo'shilib ketishining oldini olishga chaqirmoqda. Asosiy e'tiborni ma'rifatga, yoshlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga qaratish lozimligini jonkuyarlik bilan ta'kidlamoqda. Bu bejiz emas, albatta.«Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi», deydi donishmandlar. Yoshlar tarbiyasi mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik lozim.Hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Global muammolar – xalqaro terrorizm, ekstremizm, murosasizlik, savodsizlik, jaholat, qashshoqlik, zo'ravonlik g'oyasi "virusi", "ommaviy madaniyat", odam savdosi, qurol-yarog' va narkotik moddalar kontrabandası, noqonuniy migratsiya kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, qadriyatlarga putur etkazmoqda.Insoniyatni tashvishga solayotgan mana shunday og'riqli muammolarni hal etish yuzasidan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida bergan BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklifi jahon afkor ommasida katta qiziqish

uyg'otdi. «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi tashabbusi barcha tomonidan qo'llab-quvvatlanib, 2018 yilning 12 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida qabul qilindi.

Yosh avlodni jismonan va ruhan sog'lom, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni kelajagimizning munosib vorislari etib voyaga etkazishga ko'maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va faxr bilan aytish joizki, ko'plab yoshlarimiz o'zlarining intellektual salohiyati bilan xalqaro olimpiadalar, sport musobaqalari, qolaversa, barcha sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishib, yurtimiz bayrog'ini, vatanimiz sharafini himoya qilib kelayotganligi barchamizni dildan quvontiradi. Lekin, yutuqlarimiz bilan bir qatorda, ayrim yoshlar o'ttasida zararli odatlarga ruju qo'yish holatlari uchrab turganligini inkor qilib bo'lmaydi. Ana shunday salbiy holatlarning oldini olish, oila, maktab va ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni shakllantirish masalalariga bugun barchamiz jiddiy yondashmog'imiz lozim. Milliy va diniy qadriyatlarimizda farzand tarbiyasidagi nozik jihatlarga, ayniqsa, uni mehnatkash, halol, mehr-oqibatli, irodali va mard inson bo'lib etishishiga alohida e'tibor qaratmog'imiz lozimdir.

### Foydalangan adabiyotlar

1. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz 7jild, -Toshkent: O'zbekiston, 1999.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.08.2018 y. PQ-3907-sod "Yoshlarni ma'naviy-axloqiyva jismoniy barkamol etib tarbiyalash to'g'risida"gi qarori.
3. I.Karimov.Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.2008 yil Toshkent .
4. Sh.Mirziyoev 2017 yil 19-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining
5. 72-sessiyasida so'zlagan nutqi 20.09.2017 yil Toshkent.